



# OMONAT BU NIMA?



# OMONAT NIMA VA U NIMA UCHUN KERAK?



Bank omonati yoki depozit – bu pul mablag'la va jamg'armalarni bank hisobida saqlash va omonat miqdorini ko'paytirish uchun kiritishdir. Bank mijoji pul mablag'larini qo'yib, bankka o'z mablag'laridan foydalanishga ruxsat beradi va bank, o'z navbatida, omonatchiga qo'yilgan mablag' uchun foiz to'laydi.

## BANK OMONATLARI TURLARI:

### Muddatsiz

Ularning amal qilish muddati cheklanmagan bo'ladi. Mijoz o'z mablag'larini istalgan vaqtida olishi mumkin. Bunday xizmatlar uchun banklar kichik stavka taklif qiladilar, foizlar hisobning amal qilish muddati bo'yicha hisoblanadi va odatda hisob yopilganda to'lanadi.

### Muddatli

Ularning muddati bank tomonidan oldindan ko'rsatiladi va bir necha oydan bir necha yilgacha bo'lishi mumkin. Bunday xizmatlar uchun stavka muddatsizlarga qaraganda yuqori, uning hajmi va to'lov shartlari shartnomaga shartlariga bog'liqdir.

Muddatli omonatlar, o'z navbatida, quyidagi kichik turlarga bo'linadi:

- jamg'arma omonatlar – pul yechish yoki to'ldirishni nazarda tutmaydi;
- yig'ib boriladigan omonatlar – hisobga vaqt-i-vaqti bilan qo'shimcha mablag'lar kiritish imkoniyatini beradi;
- hisob-kitob omonatlari ham yechish, ham to'ldirish imkoniyatini beradi.

# FOIZLARNI HISOBLASH QANDAY AMALGA OSHIRILADI?



Omonatga qo'yilgan summa uchun foizlar shartnoma tuzilgan kunning ertasidan boshlab hisoblana boshlaydi. Bu jarayon omonatning butun muddati davomida shartnoma tugagunga qadar yoki mijoz tomonidan yopilguncha davom etadi. Hisoblashda pul mablag'lari bankda bo'lgan kunlarning haqiqiy soni hisobga olinadi. Foizlarni hisoblash uslubiga ko'ra, omonatlar oddiy yoki kapitallashtirilgan bo'lishi mumkin.

- Oddiy depozitlar uchun asosiy summa bo'yicha hisoblangan foizlar kelishilgan muddatda alohida hisob raqamiga o'tkaziladi – masalan, omonatchining joriy hisobvarag'iga;
- Kapitallashtirilgan omonatlar uchun foizlar doimiy ravishda asosiy qo'yilgan summaga qo'shiladi, shuning uchun depozitning "tanasi" asta-sekin o'sib boradi, stavka esa har safar katta summada qo'llaniladi.

## OMONAT FOIZI NIMAGA BOG'LIQ?

Omonat foiz stavkalari quyidagi parametrlarga bevosita bog'liq:

- Depozit valyutasi (o'zbek so'mi, AQSh dollari, Yevro). So'mli omonatlar bo'yicha foyda yuqori foizli bo'ladi (nima uchunligi quyida keltirilgan);
- Omonatga qo'yilgan pul miqdori. Mijoz qancha ko'p pul qo'ysa, shuncha ko'p foyda oladi;
- Davomiyligi. Uzoq muddatli omonatlar, odatda, qisqa muddatli omonatlardan ko'ra ko'proq daromad keltiradi;
- Depozitdan pul mablag'larini olish yoki uni to'ldirish mumkinmi. Mumkin bo'lgan operatsiyalarning kengaytirilgan ro'yxati (masalan, yechish yoki to'ldirish) daromadlilikka yomon ta'sir qiladi.

# FOIZ TO'LASH QANDAY AMALGA OSHIRILADI?



To'lavlarning muntazamligi bank bilan tuzilgan shartnomalarga va omonat shartlariga bog'liq. Kapitallashtirilmagan depozitlar bo'yicha oddiy foizlar ikki usulda to'lanishi mumkin: depozitning to'liq muddati tugashi bilan yoki qanchadir vaqtda – masalan, har chorakda yoki har yili bir marta. To'lavlarning aniq shartlari shartnomada shartlarida belgilanadi.

Kapitallashtirilgan omonatlar bo'yicha murakkab foizli to'lavlarni belgilangan davriylik asosida amalga oshiriladi: banklar har choraklik, oylik va ba'zan hatto kunlik kapitallashtirilgan depozitlarni taklif qilishadi. Bunday foiz to'g'ridan-to'g'ri mijozga to'lanmaydi, lekin belgilangan muddatda bir marta omonatning asosiy summasiga qo'shiladi.

## OMONATLAR YARATILAYOTGANDA KO'PINCHA E'TIBORGA OLINADIGAN XUSUSIYATLARI:

- Valyuta (o'zbek so'mi, AQSh dollari yoki Yevro);
- Foiz stavkasi;
- Minimal va maksimal kiritiladigan mablag' summasi;
- Davomiyligi;
- Muddat tugashidan oldin pul mablag'larini to'ldirish yoki olish imkoniyati;
- Kapitallashtirish yoki foizlarni olish imkoniyati;
- Uzaytirish shartlari;
- Sayt yoki mobil ilova orqali onlayn tarzda omonatni ochish/yopish imkoniyati.

# OMONATNI "YARATISHDA" NIMALARNI E'TIBORGA OLİSH KERAK?



Milliy valyutadagi depozitni "yaratishda" milliy valyuta infliyatsiyasining hozirgi darajasi va dinamikasini, shuningdek, omonatning asosiy shartlarini, masalan, pul mablag'ini muddat tugagunga qadar olish mumkinligini hisobga olish muhim. Milliy valyutadagi omonatlar bo'yicha foiz stavkalari har doim xorijiy valyudagi omonatlar stavkasiga qaraganda yuqori bo'ladi. Shuni yodda tutish kerakki, xorij valyutasidagi depozitdan keladigan daromad ikki komponentdan iborat: qo'yilgan puldan olinadigan foizlar va valyuta kursining o'zgarishidan kelishi mumkin bo'lgan foyda. Xorijiy valyudagi omonatlar bo'yicha stavkalar so'mga qaraganda past bo'lishiga qaramay, xorij valyutasida mablag' kiritishni tanlagen omonatchi xorijiy valyuta kursining keskin o'zgarishi tufayli ancha yuqori daromadlilikka ega bo'lishi mumkin.

**SIZ KO'PROQ FOYDALI VA QIZIQARLI  
MA'LUMOTLARNI "KAPITALBANK" IJTIMOIY  
TARMOQLARIDA TOPISHINGIZ MUMKIN:**



[@kapitalbank.uz](https://www.instagram.com/kapitalbank.uz)



[@kapitalbank.uz](https://www.facebook.com/kapitalbank.uz)



[@kapital24](https://t.me/kapital24)